







O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“SERVIS” KAFEDRASI
SAMARQAND SHAHRIDAGI “SHASHLIK.UZ” XUSUSIY KORXONASI

«SOG‘LOM OVQATLANISH VA FUNKSIONAL MAHSULOTLAR: INNOVATSIYALAR, SALOMATLIK VA RIVOJLANISH»
MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MA‘RUZA MATERIALLARI

TO’PLAMI

Samarqand

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“SERVIS” KAFEDRASI

SAMARQAND SHAHRIDAGI “SHASHLIK.UZ” XUSUSIY KORXONASI

«SOG‘LOM OVQATLANISH VA FUNKSIONAL MAHSULOTLAR: INNOVATSIYALAR, SALOMATLIK VA RIVOJLANISH» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MA’RUZA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

Samarqand, 2026 yil 20 may

“Sog‘lom ovqatlanish va funksional mahsulotlar: Innovatsiyalar, salomatlik va rivojlanish”. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. Samarqand, SamISI, 2026 yil, 20 may. 418 bet.

“Здоровое питание и функциональные продукты: инновации, здоровье и развитие”. Материалы Республиканской научно-практической конференции. Самарканд, СамИЭС, 20 мая 2026 г. 418 стр.

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman materiallarida Respublikamizda sog’lom ovqatlanish va funksional mahsulotlarining innovatsion технологиялари ҳамда inson salomatligi va ovqatlanishini rivojlantirish istiqbolari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, sog‘lom ovqatlanish va funksional oziq-ovqat mahsulotlarining ilmiy asoslari, sog‘lom ovqatlanish sohasida innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar, mahalliy xomashyolardan tayyorlanadigan funksional mahsulotlar texnologiyalari va ularning ahamiyati, oziq-ovqat xavfsizligi va sifatni ta’minlash masalalari (sanitariya va standart talablari), aholi qatlamlarining yoshi va mehnat sharotlariga mo‘ljallangan funksional ovqatlanish yechimlari hamda funksional oziq-ovqat mahsulotlari bozorining iqtisodiy ko‘rsatkichlari va rivojlanish istiqbollariga oid masalalar yoritilgan. Bundan tashqari, respublikamizda to‘g‘ri va sog‘lom ovqatlanish hamda funksional mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishda xomashyo, tayyor mahsulot, kaloriya, oziq-ovqat xavfsizligi, yoshga doir mehnat faoliyati va funksional mahsulotlarning iqtisodiy ko’rsatichlarining hozirgi kundagi dolzarb muammolari va ularning yechimlari bo‘yicha ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarga ega bo‘lgan ma’ruzalar o‘rin olgan.

To‘plamdagi materiallardan professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrlar, talabalar va soha mutaxassislari foydalanishlarimumkin.

***Tashkil qo‘mita a’zolari*:**

O.M.Пардаев	SamISI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor
***T*.S.Sharipov**	SamISI O‘quv ishlari prorektori
I.X.Shukurov	SamISI Servis kafedrasi mudiri, dotsent
R.Normaxmatov	SamISI Servis kafedrasi professori
A.A.Saloev	Samarqand shahar “Shashlik.uz” xususiy korxonasi rahbari
F.Axmedjanova	SamISI Servis kafedrasi professori v.b.
J.S.Fayziev	SamISI Servis kafedrasi dotsenti
Z.E.Mamarasulov	SamISI Servis kafedrasi dotsent v.b.
Z.Sh.Suvonov	SamISI Servis kafedrasi katta o‘qituvchisi

TEXNIK MUHARRIR:
U.A.Abdurayimov

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Maqolalarning mazmun va orfografik xatosi uchun mualliflar o‘zi javobgar.

© Samarqand iqtisodiѐt va servis instituti, 2026.

tashkil etish hamda turizm bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar uchun kerakli litsenziyalar va ruxsatnomalarni olish tartiblarini soddalashtirish va aniqlashtirishga e’tibor qaratish lozim.

TURISTIK DESTINATSIYALARGA TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Abdurasulov Shovqiddin Erkin o‘g‘li – SamISI, “Turizm” kafedrasi katta o`qituvchisi

Annotatsiya:*Ushbu maqola turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning iqtisodiy mexanizmlari, asosan, turistik destinatsiyaning moliyaviy effektivligini oshirish va turg’un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan.*

Kalit so`zlar: *iqtisodiy mexanizm, turizm, milliy iqtisodiyot, destinatsya, kommunikatsiya, tendinsiya, turistik resurs, biznes, sivilizatsiya.*

Navoiy viloyati O‘zbekistonning turistik jihatdan jozibali hududlaridan biri sanaladi. Bu viloyat tarixiy, madaniy va tabiiy jihatdan boy merosga ega. Shu tufayli, ushbu hududning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, turistik destinatsyalarining jozibadorligini oshirish, yangi turistik marshrutlarni tashkil etish hamda turistik destinatsiyalarning mavjud mexanizmlarni takomillashtirish va samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mexanizm atamasi keng ma’noda muayyan maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan usullar, vositalar yoki tartiblar majmuasini anglatadi. U turli sohalarda, jumladan, texnika, iqtisodiyot, tashkilotlarning ishlash tarzi va boshqa ko‘plab jabhalarda qo‘llaniladi. Mexanizm muayyan vazifalarni bajarish, muammolarni hal etish yoki maqsadlarga erishish uchun ishlatiladigan tizim yoki unga erishishi yo‘llarini bildiradi.

Iqtisodiy mexanizm - bu iqtisodiyotda resurslarni taqsimlash, turistik tovarlar va xizmatlar ishlab chiqish hamda ularning bozorda sotilishi bilan bog‘liq jarayonlar va tartiblar majmuasidir. U moliyaviy rag‘batlantirish, narx belgilash, soliq siyosati, hukumatning iqtisodiyotga ta’siri va boshqa iqtisodiy faoliyatlarni tartibga solish usullarini o’z ichiga oladi. Iqtisodiy mexanizm, shu tartibda, resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy o‘sishga erishish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning **iqtisodiy mexanizmlari,** asosan, turistik destinatsiyaning moliyaviy effektivligini oshirish va turg’un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Iqtisodiy mexanizmlarga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm).

Moliyalashtirish va investitsiyalarni jalb qilish. Bunda:

- turistik infratuzilma va loyihalarga investitsiya jalb qilish. Bu ikki tarmoq o‘rtasidagi sheriklik modellari yordamida ham amaliyotda qo’llash mumkin;

-turistik infratuzilma va loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb

qilish. Mablag'arni jalb qilish to'g'ridan-to'g'ri xususiy yoki xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va grantlar, davlat mablag'lari orqali amalga oshirilishi mumkin va boshqalar;

Turizm soliqlari va to'lovlari. Turistlardan mehmonxona soliqlari, kirish yig'imlari (masalan, muzeylarga va shu kabilarga kirish) kabi to'lovlarni yig'ish. Bu mablag'lar turistik infratuzilma va xizmatlarni yaxshilashga yo'naltirilishi mumkin.

Turistik destinatsiyalarni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish va xizmat sifatini oshirishni rag'batlantirish uchun turizm faoliyati bilan shug'ullanishchi soha vakillariga soliq imtiyozlari hamda subsidiyalardan foydalanish imkoniyatlarini berish, turizm sohasini rag'batlantirish maqsadida turizm bilan bog'liq korxonalarga soliq imtiyozlari va subsidiyalar taqdim etish orqali turizm faoliyati sub'ektlarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash lozim.



1-rasm. Turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning iqtisodiy mexanizmlari

Turizm daromadlarini diversifikatsiyalash. Ichki va kiruvchi turistlarning barcha talab va ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan mutlaqo yangi va innovatsion turistik mahsulotlarni yaratish hamda yoqori sifatli xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan mavsumiylikni qisqartirish va mahalliy va xorijiy turistlarning yanada kengroq auditoriyasini olib kelish mumkin. Qolaversa, turistlarga ekologik toza va takrorlanmas mahalliy mahsulotlar va milliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotish orqali daromadlarni diversifikatsiyalash, hamda milliy madaniyatimiz va urf-odatlarimizni dunyoga tanitish orqali ko'proq xorijiy turistlarni jalb qilish, shuningdek, mavsumiylikni kamaytirish hamda xorijiy valyuta oqimi va turistik daromadlarni yil bo'yi ta'minlashga xizmat qiluvchi maxsus dasturlarni ishlab chiqish mumkin.

Turizmdan tushadigan daromadlarni turli manbalardan olishga intilish, jumladan

mehmonxonalar, restoranlar, transport xizmatlari, ekskursiyalar va madaniy tadbirlar orqali. Bu iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi va mavsumiylikning salbiy ta’sirlarini kamaytiradi.

Narx belgilash strategiyalari. Turistik tovarlar va turistik xizmatlar uchun optimal narx belgilash strategiyalarini ishlab chiqish, bu orqali talab va taklifni boshqarish turistik destinatsiyalar barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy mexanizm tamoyillari turistik destinatsiyalarni samarali tashkil qilish va distinatsiyalarning turg’un va muvaffaqiyatli rivojlanishga erishish siklida muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat destinatsiyaning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki turizmning ijtimoiy va ekologik jihatdan ham barqaror bo‘lishini kafolatlaydi.

Navoiy viloyatida turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning tashkiliy hamda iqtisodiy mexanizmlarini zamon talablariga moslashtirish orqali takomillashtirish yo‘llari ko‘pqirrali yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuvlarni amalga oshirish orqali viloyat turizm sohasini rivojlantirish va uning iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanish mumkin bo‘ladi.

Xalikov Y.M. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASH VA “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH MUAMMOSI.....375
Tashov M.M. O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI.....378
Mamayunusov T.O. TURIZM SOHASINI INVESTITSIYALASHDA INNOVATSION FAOLIYATNI SUG‘URTA KOMPANIYALARI TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDA TAVSIYALAR.....382
Xalikov Y.M. MDH MAMLAKATLARIDA “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARINI IQTISODIY SHARXI.....386
Алимаматова М.А. SAVDO KORXONALARIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINING SIYOSIY - IQTISODIY JIHATLARI.....392
Курбонова Р.Ж., Алимаматова М.А. O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINING IQTISODIYOTNI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI DAVLAT SIYOSATI.....395
Abdumonnonov M. Maxmudova S.A., Saparov X.R., Xujamov Z.S. ELEMENTAR MATEMATIKADAN AYRIM MASALALARNI YODDAN YECHISH USULLARI BORASIDAGI IZLANISHLAR TO’G’RISIDA TAVSIYALAR.....398
Xudoyberdiyev S.I. SOG'LOM OVQATLANISH KO'RSATKICHLARINI STATISTIK USULLAR YORDAMIDA BAHOLASH VA TAHLIL QILISH.....400
Abdurasulov Sh.E. HUDUDLARGA TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....403
Abdurasulov Sh.E. TURISTIK DESTINATSIYALARGA TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....407

2026-yilda chop etilgan.

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.

“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 26,12
Buyurtma № 0106A/26. **Adadi 25 nusxa**

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.